

REZYUME. Maqolada ishlab chiqarish va muhandislik sohasida tahsil olayotgan talabalarni ham o'z sohalarida ulkan yutuqlarga erishishlarida muhandislik fanlarining o'rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, muhandislik fanlarining zamonaviy bilimlari yurtimizning muhandislik ishlarini yangi bosqichga ko'tarishdagi zamonaviy bilimlarning o'rni ko'rsatib berilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье раскрывается роль и значение технических наук в оказании помощи студентам, обучающимся в сфере производства и машиностроения, в достижении больших успехов в своих областях. Также современные знания технических наук показали роль современных знаний в поднятии машиностроительного дела нашей страны на новый уровень.

SUMMARY. The article reveals the role and importance of engineering sciences in helping students studying in the fields of production and engineering achieve great success in their fields. It also shows the role of modern knowledge in engineering sciences in raising the engineering work of our country to a new level.

O'QUVCHILARNI EKOLOGIK TARG'IBOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA OMILLARI

B.K.Xojanov – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: ekologik tarbiya, ekologik savodxonlik, ekologik madaniyat, ekologik ong, bilim va e'tiqod, ekologik salohiyat, ekologik bilimdonlik, ekologik targ'ibot-tashviqot.

Ключевые слова: экологическое воспитание, экологическая грамотность, экологическая культура, экологическое сознание, знания и убеждения, экологический потенциал, экологическое знание, экологическая пропаганда.

Key words: environmental education, environmental literacy, ecological culture, ecological intelligence, knowledge and faith, ecological potential, ecological knowledge, environmental propaganda.

Inson omilining ekotizimga noto'g'ri munosabati oqibatida bugun katta xatar sifatida qaralayotgan ko'pgina ekologik muammolar yuzaga kelayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Atmosferaga turli zaharli gazlarning ko'p miqdorda chiqarilishi, suvning ifloslanishi, chiqindilarni to'g'ri utilizatsiya qilmaslik, flora va faunaga shafqatsizlarcha munosabatda bo'lishida insonlarning hissasi katta. Bu kabi holatlarning oldini olish, birinchi navbatda, aholiga keng targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borish natijasida amalga oshirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni 4-moddasida "...barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya o'quvining majburiyligi" [1] qayd etilgan bo'lib, ekologik ta'limning bosh maqsadi sifatida aholining barcha qatlamlarida, jumladan maktabgacha, maktab, kollej o'quvchilari, oliy ta'limda ham atrof-muhitni asrash muammolariga ongli munosabatni shakllantirish masalalari qaraladi. Yoshlarda ekologik madaniyatni tarbiyalash ta'lim faoliyatining dolzarb yo'nalishlarining biriga aylandi. Bolalarda ekologik bilim qanchalik barvaqt shakllansa, shunchlik katta samara beradi.

Yana bir narsani hech yoddan chiqarmaslik lozim, har bir inson tabiat go'zalligini ko'ra bilsin, uning saxiyligini unutmasin, tabiatdan hayratlanib, zavqlanib yashasin va boshqalarga ham targ'ibot qila bilsin. Illo, go'zallik yarata bilgan insongina tabiatning ulug'ligi va chiroyini qalban his qila biladi. Demak, u mana shu tabiatni muhofaza qilishga boshqalarni ham da'vat eta oladi, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib bora olishga qodir insonlardir.

Har bir shaxs tabiat, atrof muhitni o'zining mehr-muhabbat va shavqati bilan muhofaza qilishdek oliy madaniyatga ega bo'lsagina, ekologik muammolarning oldi olinadi, sivilizatsiya xavf-xatardan omon qoladi.

Maktablarda mashg'ulotlar o'tkazish jarayonida ekologik targ'ibot ishlarini to'g'ri yo'naltirilgan holda tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda, eng avvalo, o'quvchilarda tabiatga, atrof-muhitning turli obyektlariga nisbatan, zavodlar, fabrikalar, brigadalar, guruhlar tomonidan qabul qilingan qarorlarga, katta yoshdagi kishilar va o'rtoqlari fe'l-atvorini, o'zlarining xulqini tahlil etishga ekologik yondashuvni shakllantirish borasida aniq

tadbirlar belgilash lozim. Ekologik tarbiyaning muhim shakli o'quvchilarning ishlab chiqarish ta'limi ustasi (sinf rahbari, o'qituvchi, yotoqxona tarbiyachisi) rahbarlaridagi tabiatni muhofaza etish, maktab hududlarini obodonlashtirish, ko'chat-daraxtlar ekish va ularni nazorat qilish; qushlar va hayvonlar uchun uya va in qurish; buloq, ko'l va ariqlarni axlat va chiqindilardan tozalash; tuman hududiga yaqin joylashgan qishloq yoki shahar atrofidagi oromgohlarga otalik qilish va boshqalar bo'yicha tashkil etilgan amaliy ishlaridir.

Bunday ishlar natijasida o'quvchilarda tabiat bilan bog'liq zaruriy ekologik, huquqiy, axloqiy va estetik qarashlar shakllanadi. O'quvchilar insonning tabiatdagi o'rnini, ona shahri yoki qishlog'i uchun tabiat muhofazasi borasidagi faoliyatning ahamiyatini, yer va havo, ko'l, daryolarni toza saqlash masalalarni hal etishda faol hayotiy nuqtai nazarining dolzarb ekanini tushunib etadilar va boshqalarga ham targ'ib qilish fikriga keladilar. Aynan o'quvchilarning tabiatni muhofaza etish borasida maqsadga yo'naltirilgan amaliy faoliyati individual ekologik ongning shakllanishida zaruriy shart hisoblanadi. O'zbekistonda ekologik ta'lim va tarbiya masalalari "Bog'cha bolalari tarbiyasi dasturi"ga ham kiritilgan. Bu dolzarb masalaning keyingi bosqichlari ekologik ta'lim maktablari, kasb-hunar ta'limi muassasalari va oliy o'quv yurtlarida hamda bevosita korxonalarda davom ettiriladi. O'quvchilarning maktabda tabiatshunoslik, biologiya, geografiya, fizika, kimyo va boshqa fanlardan olgan bilimlaridan maktabda darsda, sinfdan va maktabdan tashqari ishlardagi ekologik ta'lim va tarbiya jarayonida keng foydalanish lozim.

Inson va tabiat o'zaro munosabatlarining haqiqiy qulay-shakllari tabiat va jamiyat borasida g'amxo'rolik ko'rsatiladigan jamiyatdagina mavjud bo'la oladi. Bunday jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiatni muhofaza etishga, yerning sho'rlanishi, suvning ifloslanishi, o'lkaning flora, fauna sistemasining buzilishi, atrof-muhitni asrashga da'vat qilish maqsadlari o'rtasida hech qanday zarurat bo'lmaydi. Atrof-muhitni muhofaza etish uchun kurashishga da'vat etish, targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish so'zsiz, mustaqil respublikamizdagi har bir o'quvchining fuqarolik burchiga aylanmog'i lozim. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, yoshlarning ekologik

ongini shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biri – ularda tabiatga bo'lgan axloqiy munosabatlarni tarbiyalashdir.

O'quvchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalash masalasini hal etish ularni tabiat bilan o'zaro munosabatda bo'lish g'oyasini qabul qilish va uni amalga oshirish faoliyatiga tayyorlaydi. Ammo shuni ham yoddan chiqarmaslik lozimki, axloq o'z mazmunida bunday o'zaro ta'sir me'yorlarini bevosita aks ettirmaydi. Uning bevosita qo'llanish sohasi – bu jamiyatdan tashqarida emas, balki uning-o'zidagi munosabatlardir. Shuning uchun ham, tarbiyachi yaxshilik qilish, achinish, hamdardlik va ojizlarga yordam berish hissi, ezgulik, axloqiy sifatlar insonning tabiatga bo'lgan munosabatlarida ham namoyon bo'lishini aniq tasavvur etishi va uni o'quvchilarga asosli ravishda bayon qila bilishi kerak.

O'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish puxta o'ylangan, ilmiy asoslangan, maqbul tarzda rejalashtirilgan, shuningdek, uzluksiz va keng ko'lamda tashkil etilgan ekologik maorifini yo'lga qo'yish, uning sifat va samaradorligini ta'minlash asosida kechadi.


O'quvchi ekologik madaniyatini shakllantirish quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi (1-rasmga qarang):



1-rasm. O'quvchi ekologik madaniyatini shakllantirish tamoyillari

Ilk o'spirinlik yoshidagi yuqori sinf o'quvchilarida (15 yoshdan 17–18 yoshgacha) odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi, ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma'naviy sifatleri tarkib topadi. Faol ijtimoiy hayot, o'qishning yangi xarakteri (mustaqil bilim olish) yig'it va qizlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik va burch hissining tarkib topishiga, bilimning turli sohalarida ularning ijodiy qobiliyatini avj oldirishga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning o'qishga ongli qarashi kuchayadi, bu qarash bevosita hayotiy ma'no kasb etadi. O'spirinlik davrida bilishga oid qiziqish ko'lami tobora amaliy xususiyat kasb eta boshlaydi. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy masalalarga, texnika, tabiatga, osmon jismlariga, sport va hokazalarga qiziqishi kuchayadi. Ularda sezgirlik, kuzatuvchanlik yanada takomillashib boradi, mantiqiy xotirasi, esda olib qolishining oqilona o'yli sifatida ta'lim jarayonida yetakchi vazifalarni bajara boshlaydi. Bu xususiyatlar esa o'spirinlik yoshdagi o'quvchilarda ekologik targ'ibotchilikka moyillikning yuqoriligi mazkur faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini beradi.

Shunday ekan, o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi ekologik madaniyat unsurlari shakllanib borishi mumkin (2-rasmga qarang):



2-rasm. O'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ekologik madaniyat unsurlari shakllanishi

Ekologik madaniyat quyidagilarni qamrab oladi: tabiatni muhofaza etish madaniyati, tabiat boyliklaridan foydalanish madaniyati (yerning sho'rlanishi, suvning ifloslanishi, o'lkaning flora, fauna tizimining buzilishi, atrof-muhitni asrash kabi ekologik tushunchalar), ekologik tizimni o'zgartirish madaniyati. O'zida ekologik madaniyatni shakllantirgan inson bir tuman miqyosida tabiatni muhofaza etish borasidagi g'amxo'rlik undan uzoqlardagi ekologik vaziyatga ham samarali ta'sir ko'rsatishini teran tushunadi. Tabiiy muhitdagi kamchiliklarni bartaraf etish – barcha millat va xalqlarning ishidir. Ular faoliyatini bir maqsad yo'lida birlashtirish ekologik muammoni hal etishning muhim sharti hisoblanadi.

V.Sattarov “Umumiy o'rta ta'lim maktablarining V-IX sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatini shakllantirish” mavzusida olib borgan ilmiy-tadqiqot ishida ekologik ongga quyidagicha ta'rif beradi [2]: “Ekologik ong ijtimoiy-ekologik munosabatlarning muayyan tartibga solinuvchi, ekohuquqiy normativ xujjatlarining qabul qilinganligi, ular mazmunidan shaxs hamda fuqarolarning xabardorligi va tizimlangan ekologik me'yorlarga qat'iy amal qilishning majmuyi tarzida shakllanadi”- deya ekologik ongning quyidagi to'rt jihatiga e'tiborni qaratishni keltirib o'tadi:

a) ekologik ongning emotsional (hissiy idrok etish)lik jhati – shaxsning atrof muhitga yondashuv jarayonida yuzaga kelgan ekologik his- tuy'g'u, sezgi, hissiyot, kayfiyat hamda ehtiyojlarning yuzaga kelishi va ularning yig'indisi mazmunida aks etadi;

b) ekologik ongning intellektual (aqliy)lik jhati – ekologik bilimlar, dunyoqarash, aqliy-amaliy ko'nikma va malakalarning egallanish, ekologik idrok va tafakkurga ega bo'lishga olib keluvchi nazariy va amaliy ekologik bilimlarni o'rganish, ekologik ma'lumotlarga ega bo'lish asosida hosil qilinadi;

v) ekologik ongning shaxsiy (individual)lik jhati – ijtimoiy – ekologik faoliyat motivlari, atrof-muhitga munosabat, uni real baholay olish, tabiatni muhofaza qilishga ishonganlik darajasi sifatida namoyon bo'ladi, ekologik ongning mazkur jhati shaxsning e'tiqodiy va dunyoqarashi mazmuni o'zida to'laqonli aks ettiradi;

g) ekologik ongning irodaviy (ichki tayyorgarlik)lik jhati – ekotizimga nisbatan ehtiyotkorona yondashuv, ekologik muvozanatni buzmaslik, tabiatni muhofaza qilish istagi, tabiatni asrash, uning boyliklarini ko'paytirishga nisbatan mas'ullik, ijtimoiy – ekologik faoliyat jarayonida

va xatti – harakatlarda o‘z nuqtayi nazarini amalga oshirish ehtiyojiga ega bo‘lishidan iboratdir.

Demak, bizningcha ekologik ong insonning tabiat bilan o‘zaro ta’siri sohasidagi bilim va e’tiqodni mujassam etadi. Ekologik bilim odamlar o‘zlarining hozirgi va kelgusidagi biosfera bilan qanchalik bog‘langanligini, tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan oqilana foydalanish va har bir insonda atrof muhit holati uchun mas’ullik hissinin tarbiyalash obyektiv zaruriyat ekanligini tushunib etishining muhim sharti hisoblanadi. Yuqori sinf o‘quvchilarida ekologik ongning mazkur jihati ularning faol hayotiy pozitsiyasi, mustahkam xarakter va kuchli irodasi darajasi bilan tavsiflanadi. Ekologik ongning ifodaviylik jihati tabiatga munosabat chog‘ida shaxs faoliyatidagi ekologik harakat va harakatsizlik mazmuni bilan o‘lchanadi. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari ekologik madaniyatni rivojlantirish tamoyillari bilan “inson, tabiat va jamiyat” tizimining koevolyutsion konsepsiyasining birligi asosida “ekologik ong → ekologik xulq → ekologik faoliyat”ning implitsitligini ta’minlash orqali aniqlashtiriladi.

Shunday ekan, insonning ekologik ongining irodaviylik jihati uning kamolotida muhim ahamiyatga ega. Chunki tabiatga nisbatan salbiy ta’sirlar ko‘lami va sonining oshib borishi shaxsdan ularga nisbatan keskin kurasha olishi, bu

borada qat’iyatli, tashabbuskor, mustaqil hamda mas’uliyatli bo‘lishini taqozo etadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan ekologik salohiyat – ekologik va ijtimoiy o‘zgarishlar borasida chuqur, to‘laqonli bilim, nazariy va amaliy ko‘nikma, malakaga, shuningdek, keng dunyoqarashga ega bo‘lish, ekoiijtimoiy tadbirlar mohiyatini keng ko‘lamda tushuna olish, ularga nisbatan shaxsiy munosabatni bildira olish, ekologik va ijtimoiy munosabatlarning ayni holatiga real baho berish, tabiat muhofazasi yo‘lida shaxsiy namuna va tashabbus ko‘rsatish, erkin ekologik faoliyatini tashkil etish borasida muayyan qobiliyatga ega bo‘lishi demakdir. Ekologik salohiyat tushunchasi ekologik bilimdonlik tarzida hali talqin etilishi mumkin. Zero, ekologik bilimdonlik yuqorida qayd etilgan holatlarning amaldagi ko‘rinishiga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytilganda, ekologik salohiyat yoki ekologik bilimdonlik yuqori sinf o‘quvchilardan muntazam ravishda ekologik bilimlarini oshirib borishi, ekologik o‘zgarishlar borasida fikr yuritish, mavjud holatlar sabablarini aniqlash, ularni tahlil etish, salbiy ta’sirlarini bartaraf etish borasidagi shaxsiy mulohazalarini o‘rtaga tashlash o‘z fikrini asoslay olish imkoniyatiga ega bo‘lishni taqozo etadi. Bu esa maktablarda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlashning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг 1992 йил 9-декабрьдаги «Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида»ги 754-XII-сонли Қонуни.

2. Сатторов В.Н. Умумий ўрта таълим мактабларининг 5-9 синф ўқувчиларида экологик маданиятни шакллантириш (кишлоқ хўжалик меҳнати таълими мисолида): Пед. фан. номз... дисс. –Т.: 2002. -184 б.

REZYUME. Bu maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ekologik targ‘ibotchilik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari, omillari va maktab o‘quvchilarini tabiatni muhofaza qilish ishlariga jalb qilish ishlarini amalga oshirish haqida bayon qilinadi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассмотрены педагогико-психологические особенности и факторы подготовки учащихся общеобразовательных средних учреждений к эколого-пропагандистской деятельности, а также реализация работ по вовлечению школьников в природоохранную деятельность.

SUMMARY. The article examines the pedagogical and psychological characteristics also factors of preparing students for environmental propaganda activities in secondary educational institutions, as well as the implementation of work to involve schoolchildren in environmental activities.

O‘QUVCHILARNING MULOQOT MADANIYATINI AKSILOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH ILMIY-METODIK MUAMMO SIFATIDA

I.Ibodullayeva – tayanch doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: mustaqil fikr, tanqidiy tahlil, PISA, PIRLS, TIMSS, Ijodiy, tanqidiy, kreativ, kollobarativ, madaniyat, qadriyat, aksiologik yondashuv.

Ключевые слова: независимое мышление, критический анализ, PISA, PIRLS, TIMSS, творческий, критический, креативный, коллаборативный, культура, ценности, аксиологический подход.

Key words: independent thinking, critical analysis, PISA, PIRLS, TIMSS, creative, critical, creative, collaborative, culture, values, axiological approach.

Kirish. Bugungi jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan dunyoda muloqot madaniyati, samarali muloqot o‘rnatish yoki muloqotga kirishish jamiyatning ajralmas me’zonlaridan biri bo‘lib bormoqda. Xususan, dunyoning eng ilg‘or mamlakatlari ta’lim tizimlaridan, ta’lim sohasidagi innovatsion va integratsion yutuqlaridan, jahon ekspertlarining pedagogik metodlari hamda mahoratlardan samarali foydalanish orqali sifatli ta’lim muhitini tashkil etish har bir shakllanayotgan mamlakat ta’lim tizimining ustuvor strategik maqsadlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Navbatdagi Renessans davri bir qator masalalarni jumladan ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy-tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda yangi islohotlarni, tadqiqotlarni va

innovatsiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Shakllangan davlatlarning bu boradagi tajribalarini milliyashtirish, milliy ta’lim tizimiga moslashtirish hamda sinovdan o‘tkazish, milliy va xalqaro intellektual resurslarni uyg‘unlashtirish orqali ta’lim tizimini, jamiyatni isloh qiladigan imkoniyatlar yaratish ijtimoiy zaruratga aylanmoqda.

Asosiy qism. Davlat rahbarining “Avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim. Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” [1], degan fikrlari asosida xalqaro